

МАЖБУРИЙ НУСХА

ZULXUMOR HAMIDJONOVA

Bahor nafasi



«Namangan» nashriyoti
2013 yil.

84(50') 7-yil. qo's.

UO`K: 812.512.133-1

BBK: 84 (5 O'zb) 17

H- 59

NATLIB.UZ

ISBN - 978-9943-4226-4-3

1194-3858,75-1604986

NG----- 2013

1195-(3.0)-(12)

2014/1F A 1457	Alisher Navoiy no. 1457 O'zbekiston MK
----------------------	--

42321
HO O

© «Namangan» nashriyoti 2013 yil.



MUSAFFO IJOD BULOG'I

Zulxumor Hamidjonova ijodini bir necha yillardan beri kuzatib kelaman. Uning o'quvchilik hamda talabalik yillaridagi dastlabki ijod namunalari bilan tanishar ekanman, yosh ijodkorning kelajagiga umid, ishonch uyg'ondi.

Uning she'rlarini o'qir ekansiz, hayotga ziyrak nazar bilan boqayotgan, teran fikrlaydigan, nozik dil, uyg'oq ko'ngil egasi ekaniga amin bo'lasiz.

She'rlaridagi takrorlanmas fikrlar, oxori to'kilmagan so'zlarni o'z o'rnida ishlatishga harakat qiladi. Ona Vatan, takrorlanmas tabiat, beg'ubor yoshlik kabi turli mavzulardagi she'rlari yosh ijodkorning tinmay izlanayotganidan darak beradi.

Kitobdan joy olgan aforizmlar hamda hikoyalar esa kishini o'ylashga, mushohada yuritishga, xulosa chiqarishga undaydi.

Zulxumor qalbida kechayotgan tuyg'ularni, hissiyotlarni samimiy ifodalaydi.

Ijodkorning ilk kitobi misoli endigina ko'z ochgan musaffo buloq kabidir. Mazkur kitob she'riyat muxlislariga manzur bo'lishiga ishonaman.

Saidaxon NASIMXONOVA,
Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi
tuman bo'limi rahbari, jurnalist.





O'ZBEGIM QIZLARI

Kimlargadir xayolsiz kimlarga armon,
Jisingizda hayo hor qoshingiz kamon,
Balki sizga bitilgan jamiki doston,
O'zbekimning qizlari bo'lingiz omon.

Ikki kaftda duo-yu, yurakda qur'on,
Qayrilib qoshga tekkan yoy misol mujgon,
O'z ishqini qalbida tutguvchi pinhon,
O'zbekimning qizlari bo'lingiz omon.

Qalandar vaslingiz-chun yurt kezar sarson,
O'rningiz bosa olmas hech qaysi janon,
Daydi devonangizga tutmangiz oson,
O'zbekimning qizlari bo'lingiz omon.

Sizga mushk-anbar bo'lsin abr-u nayson,
Baxtingiz suyab tursin naqshinkor arkon,
Tug'ilmagan she'rlarim siz deya giryon,
O'zbekimning qizlari bo'linglar omon.





BAHOR NAFASI

Qalbga shirin tuyg'uni tugib,
Tong saharlab esmoqda shamol,
Qo'llarimga gullarin tutib,
Ostonamdan kirmoqda bahor.
Yam-yashil rang jamiki borliq,
Yerning boshin yoribdi lola.
Go'yo visol sharobin totib,
Qaldirg'ochlar kelmoqda,ana.
Mezbon misol qumri-kakkular,
Kutar chiqib peshvoz yo'liga,
Shabnamlar ham maysa bargidan,
Tomchilanib qilar xirgoya.
Doya yanglig' boshimda oftob,
Bulut meni yo'qlamas bu tong,
Tinch uyqumga hasad-la boqib,
Qarang, soat urib berdi bong.
Mayli, ursin uraversin bong,
Mangu uxlab qolmasin millat.
Bahorimning go'zal husnidan,
Uyalib jim qoldi jaholat.
Qalbga shirin tuyg'uni tugib,
Tong saharlab esmoqda shamol,
Qo'llarimga gullarin tutib,
Ostonamdan kirmoqda bahor!





KO'NGIL DARDI

Shul oshufta ko'ngilning bor erurmi davosi,
Bosh uzra soyabondir ko'zlarining qarosi.
Manzilim ul Misrning jon olguvchi saxrosi,
Meni sarmast ayladi yorning mungli navosi.

Shul oshufta ko'ngilning bor erurmi davosi,
Ey voh buncha og'irdir ishqimning zo'r g'avg'osi.
Shohni gado aylamish muhabbatning savdosi,
Meni sarmast ayladi yorning pinhon hayosi.

Shul oshufta ko'ngilning bor erurmi davosi,
Bo'lding sevgim g'unchasin mudragan ibtidosi.
Yolg'iz sen, o'zingdursan xasta dil muddaosi,
Meni sarmast ayladi yorning tonggi duosi.

Ayting ,ayting ko'ngilning bormu zarra davosi,
Buncha olis bo'lmasa yor vaslining samosi.
Ortaverdi Xumorning soat sayin ixlosi,
Hurliqolar ichinda tengsiz uning bahosi.





ERTA GULLAGAN NIHOLLAR

To'kilgan yaprog'in ko'rar,
O'z holiga o'zi kular.
Kulgan onda yig'lab turar,
Erta gullagan nihollar.

Bo'ldilar barchadan go'zal,
Hush kamoli buyuk g'azal.
Sovuq turib tegdi ajal,
Erta gullagan nihollar.

Bir yaproqdan asar ham yo'q,
Qishda bo'lar o'chog'da cho'q.
Ertasiga umidi yo'q,
Erta gullagan nihollar.

Qo'shni shoxda arg'imchoqlar,
Yangrar quvnoq sho'x chaq-chaqlar.
Bulardachi qora shoxlar,
Erta gullagan nihollar.

To'g'ri go'zal ham bo'ldilar,
Ammo ochilib so'ldilar.
Yolg'iz, shumshayib qoldilar,
Erta gullagan nihollar.



UMR O'TAR

Umr o'tar lahzalarda,
Goh yaxshi goh yomon bilan.

Imon qo'lin tutib yurdim,
So'l yonimda shayton bilan.

Yor hajrida ming o'rtanib,
Eshik qoqdim armon bilan.

Vafo tomon yuzim bursam,
Qarshilashdi bo'hton bilan.

Go'zalman deb sharob totdim,
Kuzgi chirkin xazon bilan.

Vijdon sotsam yuvmoq bo'ldim,
Bahosi yo'q ehson bilan.

Hamroh bo'lsam davlatimga,
Ketayapman nodon bilan,

Xumor oxir oshno bo'ldi,
Bir kalima qur'on bilan.



O'ZBEKISTONIM

Misrning ehromidan o'zingsan afzal,
Mitra kulib uning-chun bitadir g'azal,
Alloh falak toqidan tashlagan nazar,
Mening O'zbekistonim qanchalar go'zal.

Ahli funun kishilar el aro kezar,
Yulduzdan porloq tilim so'zlarim bezar,
Kezmadim barcha yurtni lek yurak sezar,
Mening O'zbekistonim baridan go'zal,

Bolam debon yashaydi bu ahli bashar,
Kiyganda do'ppi, atlas, to'ni yarashar,
Qayda jannat bog'i deb so'rsalar agar,
Deyman: O'zbekistonim jannatdan go'zal.

Tuman hurliqo deya vard gulin quchar,
Erkalab yanog'iga shabnamlar tutar,
Kel, chin yor kerak bo'lsa shul yerdan axtar,
Mening O'zbekistonim guldanda go'zal.





Shafaqqa tik boqib ungan chechakning,
Boshin yerga egib sindirgan zamon.
Ma'rifatga tashna Qodiriylarin,
Jaholat jomiga yo'latgan zamon.

Oh zamon, shum zamon, qasoskor zamon,
Yana ne deb atay mudxish kunlaring.
Yo'q, sen qotilmassan qotilku inson,
Aybing bag'ringdagi qora tunlaring.

Bo'g'zimdan bo'g'moqda davosiz dardim,
Yupatolmam o'zim, yupatolmam hech.
Menla yashayapsan kulganmi tolem,
Yoinki tug'ildim jaholatdan kech.

Tushlarimda mehnon ul sovuq shamol,
Qarshimda chinqirar och, yupun go'dak.
Bitkanlarim aslo kelmasin malol,
Uyqum o'chirmoq-chun o'tmishim kerak.


Usmon Nosir bo'ldi lahzalik chaqin,
El deb yondi, ketdi Fitrat-u Cho'lpon.
Razolatning tig'i kelganda yaqin,
Mazlum kimsalarga bo'ldilar o'lpon.





Oh ursam ohimga qaqshaydi jonim,
Tasalli bermoqda qo'ldagi qalam.
Ajdodlardan meros tandagi qonim,
Nazm uyi mening qo'rg'onim qal'am.

To'xta, bir on shoshma qasoskor zamon,
Ayt nega bunchalar izg'iysan bedor.
She'rim ila ertan gar bo'lsam inson,
Demak, umr yo'lim o'tmabdi bekor.





DUNYO SENDAN SO'RGANIM

Dunyo sendan so'rganim bir qatra imon,
Haq yo'ldan ozdirmagin yo'l berib oson.
Yo'llarimdan nogahon chiqmasin shayton,
Insonlarning ichida bo'layin inson.

Dunyo sendan so'rganim bir chindim qur'on,
Alloh dedim, degayman hamisha har on.
Orzularim o'rnida unmasin armon,
Insonlarning ichida bo'layin inson.

Dunyo sendan so'rganim qudratli zamon,
Nafsim deya qadrimni narxlamay arzon.
Kulbanga aylanmasin nursiz, zax zindon,
Insonlarning ichida bo'layin inson.

O, oqibat, adolat do'stingman inon,
Kir, ko'nglinga mehmon bo'lmayin sarson,
Xumor bu kun sizlarni sog'ingan yomon,
Insonlarning ichida bo'layin inson.





NIGOHLAR

Shafqat bilmas makkoralar,
Ishq bog'ida ovvoralar,
Dillar siz-chun ming poralar,
Oh bu nigohlar.

Uyqu bermas ko'zingizga,
Quloq solmas so'zingizga,
Atalmagan o'zingizga,
Oh bu nigohlar.

Jismingizga paykon otar,
Qarashlari tig'day botar,
Sizni juda oson sotar,
Oh bu nigohlar.

Har kun yangi tonglar bilan,
Zo'r zamin-u zo'rlar bilan,
O'ylab ko'ring kimlar bilan,
Oh bu nigohlar..

Og'ir damda qarashmaydi,
Holing bir bor so'rashmaydi,
Savlatingga yarashmaydi,
Oh bu nigohlar.

Shafqat bilmas makkoralar,
Ishq bog'ida ovvoralar,
Oxir o'zi ming poralar,
Oh bu nigohlar.





IQROR

Atamang toshbag'ir deb meni aslo siz,
Orzum gullay olmadi so'lidi essiz.
Aslida kerak ekan yashamoq hissiz,
Balki baxtga yetarman shu holda shaksiz.

Yo'q man-man deya ko'rmang bilmay turib siz,
Yuragimga o'yilgan tundeq qora iz.
Chinor uzoq yashagay bo'lsa ham yolg'iz,
Balki baxtga yetarman shu holda shaksiz.

O'ylab ko'ring hech bo'lmas guruch kurmaksiz,
Mag'rurlik o'z yo'liga ketmangiz izziz,
Ba'zan yashash kerakda cho'kib hatto tiz,
Balki baxtga yetarsiz shu holda shaksiz.





SAMOVIIY ISHQ

eng yaqin insonimga

Tog'da o'sgan lolaman yaprog'ida rangi yo'q,
Kuypanyotgan nolaman ohangida avji yo'q,
Juda nozik tolaman ertasiga umid yo'q,
Ko'ksim poylab yotgandir qaylardadir daydi o'q.

Sokin yotgan bolaman yig'lashga majoli yo'q,
Saydin kutgan sayyodman otmoqqa kamoni yo'q,
Kulayotgan suratman lekin jismu joni yo'q,
Ko'ksim poylab yotgandir qaylardadir daydi o'q.

Asir-u benavoman o'z yoriga ko'ngli yo'q,
Har tong chaqnagan ko'zman javharida nuri yo'q,
Bulbuldek biyron tilman so'zlarida ma'ni yo'q,
Ko'ksim poylab yotgandir qaylardadir daydi o'q.

Falakda to'lgan oyman kechalari nuri yo'q,
Asov kishnagan toyman jilovida erki yo'q,
Xoliq-chun oshig' o'ldim ul dardning davosi yo'q,
Bedavoni poylabon bekor ketma, daydi o'q.





ADABIYOT GULSHANI

Bu kech mayxonadaman Shekspirni yod etib,
Pushkin bitgan baytlarni chok-choklaridan titib.
Sho'rluk Dezdemonaning qo'llarin asta tutib,
Gandiraklar qalamim asarlar mayin toyib.

Bu qandayin sir-asror, bu qandayin sinoat,
Bobur Hindda shoh va-lek diydor begona faqat.
Navoiyning dardlari qalbga tizilgan qat-qat,
Adabiyot jahonda ochilmas ajib xilqat.

Nahot Mashrab devona ilohiy ishq kuyidan,
Zaynab qotil bo'ldimi Otabekning ko'yidan.
Mirzo ilinj istamang padarkushning lafzidan,
Hatto Temur qaytmagan bosib o'tgan izidan.

Farzandni manqurt etgan o'shal shoir emasmi?
Onani zor qaqshatgan ul ham shoir emasmi?
O'zi bitgan qismatdan o'zi yonib kuymasmi?
Shoir asli kim erur zo'rmi yoki bir xasmi?

Kim javob berar ayting telbanavo savolga,
Meni xudbin atamang bir zum cho'kib xayolga.
Dunyomas biz o'tkinchi pinhon boqing hilolga,
Hamon javob izlayman javobi yo'q savolga.





KUZGINAM

Oh, bu yuzlar qanchalar go'zal va ko'rkam,
Oro berdingmi o'zga chiroyim deb kam.
Husnu-malohatingga aytchi kim hakam,
Fasllarning fusunisan kuzginam, erkam.

Yaproqlaring yovlarga aytmasin sirlar,
Tutgan noz-ne'matingdan yayraydi dillar.
Vaslingdan tez ajratar izg'irin yellar,
Kuzginamdan ayirmang qizg'onchiq yillar.

Shamol shoxing o'ynoqlab rashkim qo'zg'aydi,
Shivirlagan yomg'irlaring dilim o'rtaydi.
Mag'rur hislarim zumda yuvib tashlaydi.
Shafqat bilmas kuzginam kimga o'xshaydi.

Oltin soching tolasidan kechib ketolmam,
Har yil izingdan chopib quvib yetolmam.
Ko'kni larzaga solgan bu mening nolam,
Ayoza kuzginamni eltmoqda olam!



2014/15	Alisher Navoiy
A	nomidagi
1457	O'zbekiston MK



O'KSIK KO'NGILLAR

Bahor chog'i xazondek to'kilib ketar,
Tunlari ko'z yoshlari gul yuzin o'par.
Butkul asir bo'lgan dil kimni ham sevar,
Suyub suyulmagan o'ksik ko'ngillar.

Gap uqmas qaysar qalbin ovutib yashar,
Tabassum qilsa agar kulgu yarashar.
Oyoq yalang qish chog'i sovuq suv kechar,
Suyub suyulmagan o'ksik ko'ngillar.

Nahorgi xushbo'y choyin zahardek totar,
Boshida ming xil xayol qaylarga chorlar.
Mana-man degan boy ham ishq aro qullar,
Suyub suyulmagan beayib dillar.





MUSTAQIL VATANIM

Loyqaladim yuz yuvib soylardagi suvinga,
O'zga yerlarni kezdim tuflab non-u tuzinga.
Bildimki hech yerda yo'q bir o'xshashi o'zinga,
Shul mustaqil vatanim singib ketgan qonimga!

Qanotim bo'lsa koshki iz bosmasdim yuzinga,
Ko'z yumib quloq tutdim sabo ila so'zinga.
Sozim olib chalaymu shodlan deya sen zumga,
Shul mustaqil vatanim ildiz otgan tanimga!

Deyman ofarin,balli nurli, hur zamoningga,
Baxtni ravo ko'rgaysan yaxshi-yu yomoningga.
Tillolarni alishmam bir hovuch tuprog'ingga,
Shul mustaqil vatanim jon kiritdi jonimga!

Dunyo tahsinlar aytar «Tanovor»dek raqsingga,
Jonim poyonдоз etay tabarruk poygohingga.
Bosh egib ta'zimdaman o'ziga bek xalqingga.
Shul mustaqil vatanim chirog' yoqti qalbingga!





ONA

Dengiznida qaynatar taftining o'ti,
Tosh yurakni eritar samimiy so'zi,
Do'zax o'tin yo'latmas jannatdir o'zi,
Bu dunyoning quyoshi onalar asli.

Har bir og'ir kuningda sen-la yelkadosh,
Qarshisida tik turma egik tursin bosh,
Senga vafo qilmaydi qora qalam qosh,
Ona kaftiga olsa tuproq bo'lar tosh.





SENI SEVDIM

Ko'zlarim yumilgan on seni tush ko'rdim,
Aziz boshingga qo'ngan baxt qushin sezdim.
Oh ishqning osmonida ne bo'lsam bo'ldim,
So'zlarimga quloq sol men seni sevdim.

Behudaga ranj aylab to'kmagil qonim,
Bir boqib dilim xushla kulsin iqbolim.
O'zingdursan sultonim ham nomus-orim,
So'zlarimga quloq sol men seni sevdim.

Vujudim titramoqda chiqolmas jonim,
Har lahza yonimda tur bo'lib posbonim.
Shul so'zlarimni takror aytmog'im lozim,
So'zlarimga quloq sol men seni sevdim.





NAMANGAN NIHOLLARI

Turon zamin najotlari,
Erk-chun kuygan ajdodlari.
Kelajakning qanotlari,
Namanganning nihollari.

Temurdayin shaxdlari bor,
Manglayida baxtlari bor.
Qilich kesmas ahdlari bor
Namanganning nihollari.

Maqsadlari osmon qadar,
Zo'r imkondan medal taqar.
Vatan shanin dilga qadar,
Namanganning nihollari.

Bekor yurmas ko'cha kezib,
Gul yoshligin ezib-ezib.
O'zni nochor, xarob sezib,
Namanganning nihollari.

Ulus holin so'rsam deydi,
Yurtga fido bo'lsam deydi.
So'ngra mayli o'lsam deydi,
Namanganning nihollari.

Millat uchun yashnar, unar,
O'sib ulkan chinor bo'lar.
Yuksaklarda oyday to'lar,
Namanganning nihollari.





ORZULAR

Xush yoqarkan kishiga baxtiyor onlar,
Bu kun meni yo'qlamas qora qayg'ular,
Ko'ksimda nish urmoqda latif tuyg'ular,
Bunchalar siz go'zalsiz oppoq orzular.

Falak uzra talpinar sarvqomat bo'ylar,
Tinchlik qushini poylar sarafroz o'ylar,
Daydi bodi-saboga so'ylayman sirlar,
Bunchalar siz go'zalsiz oppoq orzular.

Otash yanglig' so'zimga kuy bitar tog'lar,
«Tanovor»ga raqs tushar jilvakor bog'lar,
Oldinda zo'r lashkardek saf tortgan yillar,
Bunchalar siz go'zalsiz oppoq orzular.





O'ZBEGIM

Saraton yoz chog'ida ul soyabonim,
Zabonsiz bo'lsa tilim bo'lgay zabonim.
Sahroni bog' aylagan serzavq bog'bonim,
G'ururim, shanim manim ozod o'zbekim.

Tarifingni kuylashga shaylanar sozim,
Ko'ngling chokin tiksaydi aytajak ohim.
Bo'lay sovuq qishdan so'ng bahoring o'zim,
G'ururim, shanim manim hur zot o'zbekim.

Qadoq qo'ling berkitma ozod diyorum,
Qayda bo'lsam senladur shirin xayolim.
O'lsam o'zing bo'lasan yolg'iz mozorim.
Gururim, shanim manim ummat o'zbekim.

Mag'rur qadding egishga kim qilgay jazm,
Qirq kechayu qirq kunduz qilsang kam bazm.
Sen tog'lardan yuksaksan solib ko'r razm,
G'ururim, shanim manim shamshod o'zbekim.





UMR NIMA?

Umr nima? Nimadir hayot?
Hislaringga asir tushishmi?
Bir-biring-chun kuyub o'rtanib,
Hijron aro tutun bo'lishmi?

Umr nima? Nimadir hayot?
Sinovlarda xo'b toblanishmi?
Dardlaringni dilingga tugib,
Tunda unsiz faryod chekishmi?

Umr nima? Nimadir hayot?
Shodlikdan so'ng kelgan tashvishmi?
Ko'ngil bog'ing xazon aylagan,
Ko'ksingga tig' urgan mish-mishmi?

Umr nima? Nimadir hayot?
Oyday to'lib kunday so'nishmi?
Kayf-safo deb boring ulashib,
Badnom bo'lib loyga qo'nishmi?

Umr nima? Nimadir hayot?
Yuzda kulib asli yonishmi?
Gar joningni yo'qlasa jafu,
Yaratgandan nolib yurishmi?





Umr nima? Nimadir hayot?
O'zga yorga quchoq ochishmi?
Aldanib sho'x shahlo ko'ziga,
O'z baxtingdan olis qochishmi?

Umr emas, shunchaki o'yin,
Ermak qilib qayta boshlashga.
Yillar sizga egmaydi bo'yin,
Umr toshin qayta tashlashga.

ARMON

Oy to'lishgan kechada suratingga termulib,
Kemtik yuragim ketti jonim juda og'rinib.
Bu holimdan mamnunday menga qaraysan kulib,
Mayli baxtli bo'laqol, mol-dunyoga ko'milib.

Bilmay xato qilibman sho'r dengizdan suv ichib,
Senchi kimni tanlading, devonam mendan kechib.
Kutib tolmas bu ko'ngil, kelarsan deb ovunib,
Sovuq muzday muzlabsan shon-shuhratni sog'inib.

Yashading boylik, chiroy, shuhrat to'nlarin kiyib,
Yaproq misol to'kilsam yuribsan davron surib.
Xayr, alvido derman Kumushdayin zorlanib,
Kut qayta tug'ilarman bog'ingda bir gul bo'lib.





BOLALIK

Yodimdadir hali u damlar,
Arg'imchoqda ko'kka uchganim.
Bolalikning tor hujrasida,
G'am anduhsiz qo'nim topganim.
Yurak qurg'ur nedan bezovta,
Xayollarim chang bo'lib ketdi.
Qora ko'zli jajji qizchani,
Qo'lin hugun katta yo'l tutdi.
Qayga boshlar bu so'ngsiz yo'llar,
Qayda qo'nim topgan adog'i.
Yuragimni kemirib bitar,
Keng dunyoning so'ngsiz so'rog'i.
Qo'llar meni bobolat ruhi,
Jarang sochar momom allasi.
Yoshlik ayni ijodning vaqti,
Ovozimda sherning na'rasi.
Kerak emas menga buyuklik,
She'r bitmasman shon-shuhrat deya.
Bor umrimni olgin ey ochun,
Bolaligim bir quchmog' uchun.
Yodimdadir hali u damlar,
Arg'imchoqda ko'kka uchganim.
Berkinvolib uyning chetiga,
Qo'g'irchoqqa alla aytganim.





KECH

Qo'y Xumor bag'ring tig'lama,
Shifo topmas alamdan kech.

Shul qosh-u ko'z ishva birlan,
Vafo qilmas husndan kech.

Gar komillik yo'lin tutsang,
Nafsdek ayyor ilondan kech.

Hurmatni izlasang eldan,
Chirib bitgan g'arazdan kech.

Kezmoq uchun ishq bo'stonin,
G'urur taqgan kishandan kech.

Adog'i yo'q baxtni ko'zlasang,
Zaif ruhli g'azabdan kech.

Mag'rur boshing egmay desang,
Yoningdagi yomondan kech.

Xalq deb kuygan shoir bo'lsang,
Quruq, yolg'on so'zingdan kech.



YIG'LADIM

Kechirgil muhabbatim qo'lingdan tutolmadim,
Netay g'ururim quvib ko'changdan o'tolmadim.
Ko'zdagi qonli yoshim yo'lingga sepolmadim,
Qaro tuning qo'ynida yoding qo'msab yig'ladim.

Kuzingda bahor bo'lib iforlar socholmadim,
Xasta holing bildim-lek davosin topolmadim,
Nashtar urib ko'ksinga Laylidek botolmadim,
Qaro tuning qo'ynida yoding qo'msab yig'ladim.

Xilqat erur har so'zing, mag'zini chaqolmadim,
Siymoing qalbga chizib, so'ngra o'chirolmadim.
G'amgusorman na qilay shuning-chun yo'lolmadim,
Qaro tuning qo'ynida bu kech yana yig'ladim.





YASHAGIM KELDI

Ishqing-chun xonumonim kuyub-kul bo'ldi,
Holima devona deb ag'yorlar kuldi.
Ko'nglim ko'ngling bog'ida unolmay so'ldi,
Sen-la jonim bir lahza yashagim keldi.

Vasling aylab ixtiyor paymonam to'ldi,
Jim ketding faqiringda orzular qoldi,
Izing o'pib dudog'lar hislarim toldi,
Sen-la jonim bir lahza yashagim keldi..

Nigohing ajib xilqat zimdan bir boqdi,
Shamshir qoshing qotildek ko'ksima botdi,
G'am bila yaro dilim a'rofdan yotdi,
Sen-la jonim bir lahza yashagim keldi.





QALAM QUDRATI

Qalamim sen o'zing eng buyuk qudrat,
Qudrat-ki har nedan yuksak ulug'roq.
Qalbingdan ko'z yoshdek to'kilgan siyoh,
Yillar bitiklarin bitdi chuqurroq.

Ajab bu qandayin sir-asror ekan,
Yurakdan dardingni olar og'rinmay.
Shul qalam berolgan zo'r halovatni,
Ming kecha ichsang ham beraolmas may.

Goh sokin, gohida dovul kabidir,
Mavjlanib, tebranib kirar ko'nglingga.
Gar tutsa gumrohning aytar so'zini,
Shu on qo'yar nuqta issiq joningga.

Kichkina jussangga shartmi shuncha g'am,
Nahotki, senda yo'q to'y-u tantana.
U bo'lsa siyohin to'kib yig'laydi,
Ana, yangi dardlar mehmondir yana.





VATAN

Sharaflab men shaningga takror she'rlar bitayin,
Sen uchun bor-budumdan, aziz jondan kechayin,
Bo'zlagan tuprog'ingga xushro'y janbil ekayin,
Vatan chakkangni tutgil turfa gullar taqayin.

Loy suppachang bo'lolmas shohlarning koshonasi,
Hayratla boqar hatto Tojmahal ostonasi,
Borsang eshigin ochar falakning g'amxonasi,
Vatanga libos bichsam bormikan andozasi.

Sen tiriklik aksisan, jonli qo'shiq kuylayin,
Sochim silab allala tinglab orom topayin,
Tong saharlab uyg'otib yuzinga suv sepayin,
Vatan koringa bir kun ulkan ustun bo'layin,





AFSUS

Mol-u davlat botqog'iga g'arq bo'ldim, botdim,
Serhosil bo'z tuproq edim tosh yangliq qotdim.
Osmono'par binolarda faqirdek yotdim,
Men baxtimni birovlariga qo'sh-qo'llab sotdim.

Shayton tutgan xush og'uni simirib totdim,
Bir tikonni gul desalar chakkamga toqdim.
Iymonimni qayerlarga g'ijimlab otdim,
Pok-pokiza vijdonimni arzonga sottom.

Ayting kimning soyasiga ko'rpacha soldim,
Vafo deya asli neni omonat oldim.
To'g'ri yo'lning o'rtasida g'aflatda qoldim,
Oqibatni or bilib elda xor bo'ldim.





TINCHLIK MADHI

G'urur, iftixor ila qo'lda bayrog'i,
Bu elda hech so'nmagay millat chirog'i.
Qad ko'tarar har yonda ma'rifat tog'i,
Bizni o'z tomon chorlar bilimlar bog'i.

Mening ajdodim erur Bobur, Navoiy,
Shonli tarix sahifam yangraydi boqiy.
Qo'rg'onimning qoshiga yo'lolmas yog'iy,
Chunki xalqim o'zbeklar yurtga fidoiy.

Har kimning o'z vatani tug'ilgan joyi,
Barcha ellar yashnasin nur sochsini oyi.
Ajdodlarim mehnati ketmasin zoyi,
Qonga to'lib oqmasin tinch zamon soyi.





ZULFIYAXONIM IZDOSHI

O'zbekning ayolini so'nmas nurli quyoshi,
Majnuntolning shoxidek to'lg'onar sunbul sochi,
Mehnatidan yaralgan haloldir non-u oshi,
Qani men ham bo'lsaydim Zulfiyaxonim izdoshi.

Falakdagi yulduzlar tunda bo'lgan sirdoshi,
Ranj-u alamni tuydi yolg'iz ayollik boshi,
Yonidan hatlab o'tdi og'ir tuhmatning toshi,
Qani men ham bo'lsaydim Zulfiyaxonim izdoshi.

Yuk bo'lar qirq tuyaga tog'larga teng bardoshi,
G'anim yo'lin poylaydi shamshirdek keskir qoshi,
Der: o'zbekka yarashmas vahm aro nolishi,
Qani men ham bo'lsaydim Zulfiyaxonim izdoshi,





KITOBLAR

Qimmatbaho javonda yotibdi betob,
Ichida ne-ne zotlar qilganlar xitob.
Oydin sokin kechalar charaqlar oftob,
Qachongacha chang bosib yotar bu kitob.

Egri yo'ldan ozdirar eski hikmatlar,
Zulmat aro g'arq bo'lar yomon illatlar.
Uzulguvchi varoq ham o'tmishdan so'zlar,
Qachongacha chang bosib yotar kitoblar.

Bir on xayolga cho'ming ey o'g'il-qizlar,
Otangiz ketar bir kun yo'q bo'lar pullar.
Beshqo'l barobar emas keladi kunlar,
Do'st bermagan qadrni berar kitoblar.





KECHIKKAN ISHQ

Sizga takror she'r bitdim o'qib ko'rmabsiz,
G'amgin yurak torini pisand qilmabsiz.
Nozik ko'nglim sirlarin tushunolmay siz,
Bahordan so'ng kech qolib gullab yashnabsiz.

Sevmaganingiz balki bo'lgandir yaxshi,
Sizni kuylab bir vaqtlar bo'lgandim baxshi.
Endi menga tegmas hech muhabbat toshi,
Yozni kutmang, u kelmas hozir qish boshi.

Olis yo'lga zor boqdim, yo'q kelmadingiz,
Suyushim nigohimdan anglolmadingiz.
Necha qalbni qaqshatib qanday kuldingiz,
Zahardan so'ng kech qolib zam-zam totdingiz.





TO'RTLILAR

Havas ila boqaman chumolilarga,
Garchi ular kichkina, kuchsiz bo'lsa ham.
Valekin jamlanishib kirsalar jangga,
Ularga teng kelolmas hatto odam ham.

Yillar charxlab borarlar qalamim uchun,
Ezgulikka she'r bitay tiriklik uchun.
So'zlarim yolg'on emas, erur asli chin,
Bug'doy don ham yanchilib so'ngra bo'lar un.

O'rgamchakning to'riga seni deb marjon teray,
Kaftimda yanog'ingga suv emas shabnam tutay.
Muzlar o'rniida cho'qdan mangulik so'zin bitay,
Bog'i eramdek yurtdan kechib qayga ham ketay.

Cho'l bag'riga ekilgan gul ungay mehr bilan,
Suvda suzgan nilufar rost so'lgay qaxr bilan.
Ko'ngil torin uzvorma bir onlik jahl bilan,
Ul dunyoga ketmagin jon do'stim kibr bilan.





YURAGIMDA YASHAYSAN

Yozi yobon qo'ynida ochilgan yosumansan,
Alifni uyaltirgan sarfqomat o'zingdursan.
Sen ham mendek yoring-chun tun-u kun giryonmisan,
O, yosuman yuzligim yuragimda yashaysan.

Shabnam tutgan sharobdan gulgun lolarangmisan,
Asrlarga botib ketgan ochilmas asrormisan.
Ayt-chi, devonalarning maxliqosi senmisan,
O, lolarang yuzligim yuragimda yashaysan.

Hayoga boy nigohing moviyko'z nilufarsan,
Ninachiga bosh egib yuzlaring yashirgaysan.
Billoh nozaninlarga o'chmas, mangu ibratsan,
O, nilufar yuzligim yuragimda yashaysan!





QO'RQAMAN

Yonginamda yaqinlar ko'paymog'idan,
Yot begona ostonam yo'qlamog'idan.
Yolg'on so'zim chin deya so'zlamog'idan,
Juda-juda qo'rqaman shon-u shuhratdan.

Makrli dunyo ko'zim boylamog'idan,
Pok qalbinga kibrni joylamog'idan.
Sendan zo'ri yo'q debon aldamog'idan,
Juda-juda qo'rqaman mol-u davlatdan.

Oltin taxtga shoh etib saylamog'idan,
Shayton soyam qo'riqlab o'lirmog'idan.
Chang burchakda oqibat yig'lamog'idan,
Juda-juda qo'rqaman obro'-mansabdan.

Ayriliq vasfin bulbul kuylamog'idan,
Ko'nglim kuyga tor bo'lib chertilmog'idan.
Xo'ragi yo'q qarmoqqa ilinmog'idan,
Juda-juda qo'rqaman yolg'on sevgidan.

Abgor bo'ldim bilmayin oh ko'ngli zangoraman,
Lobar yorim yonida jonhalak parvonaman,
Laim bo'lib ko'yida g'amnok-u vayronaman,
Ql jonimni ol deya darbadar ovvoraman,
Hol so'rsang o'tlar yoqib mundin men hayronaman.





AFORIZMLAR

G'urur-yurakni qamrah olgan qudratli dengiz. U haddan tashqari mavjlanib, tiriklik sohiliga oqib kelgudek bo'lsa butun bir millatni va dunyoni vayron qilmog'i tayin.

Boylikning atrofida izg'ib yurgan kapalakdan ko'ra shamning shu'lasini bilan o'ynashayotgan parvona afzalroq.

Bejizga olloh go'zallikning to'qson foizini Momahavvoga baxshida etmagan.
Buning boisi shuki, u bo'lajak ona.

Tilni kuydiradigan qaynoq choydan ko'ra zilol, sovuq suv mazaliroq.

Orzu - Ruhi jismini tark etayotgan bemorni ham, quvonchga to'ldiruvchi ajib mo'jiza.

Uyqu-yengilmas jangchini ham yiqita oladi. Uyquni jilovlagandan ko'ra asov yo'rg'ani jilovlash ming chandon osonroqdir.

Umid-eng sodiq do'st, sahroning o'rtasida yolg'iz qolganingizda ham siz bilan birga yuradi.

Umidsizlik-eng ashaddiy dushman, biroz muvozanatni yo'qotsangiz, sizni o'sha onda tubsiz jarga uloqtirib yuboradi.





Ishonch-baxt darvozasining oltin kaliti. Kalitni qo'ldan boy bergan inson harchand urinmasin darvozani ocha olmaydi.

Oltin-hotqoqning ichida ham zanglamas, o'zidan ko'zni qamashtirib yuhorguvchi nur tarata oladi. Nurning shu'lasiga aldanib kelganlarning bari botqoq aro g'arq bo'lmog'i muqarrar.

Muhabbat-jannatning so'lim bog'i, lazzatli mevalarining eng totlisidir, kishini ko'kka uchirib dardini forig' etadi.

Muhabbat-do'zaxning eng chuqur va qaynoq olovi, tafti kishiga yaqin yo'lagudek bo'lsa kuydirib kul qilmaguncha tinchimaydi.

Jahl otiga minib yo'lga otlangan chavandozdan, ijobiy natija kutishning hojati yo'q.

Birovning qistovi bilan hunar o'rganayotgan kishi bo'yniga sirtmoq solinib, qatl maydoniga yetaklab ketilayotgan mahbusga o'xshaydi.

Yigit va qizlarning o'smirlik davridagi uyg'ongan muhabbatlarining mehrliligi bir-birlariga emas, balkim ilm quyoshining shu'lalariga qaratilganda edi, odamizot allaqachon abadiy yashash eliksirini kashf etib ulgurgan bo'lardi.

Taqdir-qalamimiz ila yozib borilayotgan yillar bitigi. Ushbu bitigni qanchalar sodda va ravon, husnixat asosida yozish tanho o'zimizga bog'liq.





Zog' eng yuksak cho'qqiga parvoz etib falakning toqiga qanot urib kelsa ham uni hech kim burgut deb atamaydi, baribir zog'ligicha qolaveradi.

To'ti boshqa qushlardan farqli ravishda burro tili bo'lganligi bois ham, temir qafasda yashashga mahkum etildi.

Qiz bolaning yuziga boqib onasini ko'rganday bo'lasan, o'g'il bolaning qiyofasiga boqib esa otasini ko'rganday bo'lasan, lekin ular aynan o'sha ota-onalar degani emas.

Mana'viyatsiz joxil kimsalarning o'rinsiz, bo'lmag'ur gap-so'zlari uchun, kun tartibingda bo'sh joy qoldirma.

Asli odam yorug' dunyo yuziga ko'zi ojiz bo'lib keladi - yonida o'tirgan baxtini ko'ra olmay aybni ko'zlariga emas dunyoga ag'darishadi.

Ko'z yosh to'kib noligandan ko'ra to'rt muchang sog'lom bo'lganligi uchun quvonch sharobidan sarmast bo'l.

To'satdan kelgan quvonch, tashvishning ilk qadamidir.

Nogoh yo'lda qoqilsang og'riqdan zorlanma, hayotning yana bir sinovidan o'tib ketding.

Har qanday o'nqir- cho'nqir, notekis ko'channing boshi, albatta, tekis asfalt yo'lga borib tutashadi.





BOYLIKKA BURKANGAN BAXTSIZLIK

Turmush chorrahalarida

Yaratganga ming bor shukronalar bo'lsinkim, bugun jannatmakon vatanimizning sarhadlari tinch va osoyishta. Kundan kunga chiroy ochib gurkirab borayotgan shahrimizning go'zalliklari kishilar qalbiga cheksiz quvonchni jo etadi. Ajdodlarimiz o'z or-nomusini, bukilmas irodasini sovuq jangohning sotqin qo'llariga tutib qilgan qonli kurashlari evaziga tomchilay-tomchilay qudrati dengiz bo'lgan butun bir millatning ajralmas qismiga, ong-u shu'uriga aylangan mustaqillik ostonasida istiqomat qilmoqdamiz. Mana shunday ozod hamda obod vatanga faqat va faqat to'y-u tantanalar yarashadi.

Qo'shni mahallada bir yil oldin yangragan karnay-surnay sadolari, dabdabali to'y-hashamning ovozi butun shaharni qamrab oldi. Bazmu-jamshid arafasida barcha xursand, shod-xurram edi. Faqatgina negadir kelin va kuyovning yuzlarida qandaydir dardli iztirob berkinmashoq o'ynab, kezib yurishardi. Uning kattalari yoshlarning ko'ngli boshqa birovda bo'lishiga qaramay, yillar mobaynida misqollab yig'ib tergan davlatimning huzurini bir begona qiz ko'radimi yoki million-millionli sarmo-surublar, chet elning mana-man degan mebellari loy suvoqli uylarda hor bo'lib yotadimi? Bu bizning shanimiz uchun chidab bo'lmas haqorat-ku deb, yoshlardan bir og'iz ham so'rab o'tirmay, ikki aka-ukalar o'zaro quda-andachilik munosabatlarini ipsiz bog'lab qo'yishdi. Gap ketidan quvib,





g'iybatni xush ko'rguvchi kishilar esa so'z ushlamas tillarini o'n besh qarich qilib, to'y kuni kazo-kazolar kelishdi-deya shivirlashib yurishdi. Bu gaplarning daragini eshitgan qudalar o'zlarining qilgan ishlaridan mamnun bo'lib, barcha teng-tengi bilan-da deb qo'yishdi. Ammo ularning baxtiyor onlari ko'p ham olisga cho'zilmadi. Ancha vaqtdan buyon orzuqib kutilayotgan oilaning yangi azosi qandaydir noma'lum sabablarga ko'ra nuqson bilan yorug' dunyo yuzini ko'rdi. Jamiki shifokorlarga ko'rsatishsa hamki kor kelmadi. Kattalarning o'ylamay-netmay qilgan sayi-harakatlari evaziga yana bir norasida go'dak nobud bo'ldi. Tong-saharlab hovli supurayotganimda, devorning ortidan fотиha o'qib qaytayotgan kishilarning suhbatı qulog'imga chalindi. Sizlar ham ko'rdinglarmi? marakaga kazo-kazolar tashrif buy urishibdi-a!

Afsuslar bo'lsinkim oramizda aql-zakovati va qalbining amriga quloq solmay, nafsining to'zg'igan girdobiga tushib qolayotgan insonlar ham yo'q emas, albatta. Atrofga diqqat bilan razm soladigan bo'lsak tinch, osuda otayotgan tonglar, oynıng nurafshon shulalaridan yorishib yotgan sokin tunlarning guvohi bo'lamiz. Nahotki, Alloh oilamizga in'om etgan yuksak baxtni ya'ni mustaqillikning tashvish bilmas yangroq kulgularini o'tkinchi bir-necha lahzalik hoyu-havas deb, xor qilsak. Bejizga yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov: «Bu muqaddas zamında azizdir inson» - deya ta'kidlamaganlar. Buning boisi shuki, mustaqil zamin insonni emas, balkim inson mustaqil va muqaddas zaminni bunyod etadi.





MUNDARIJA

Musaffo ijod bulog`i.....	3
O`zbekim qizlari.....	4
Bahor nafasi.....	5
Ko`ngil dardi.....	6
Erta gullagan nihollar.....	7
Umr o`tar.....	8
O`zbekistonim.....	9
Dunyo sendan so`rganim.....	12
Nigohlar.....	13
Iqror.....	14
Samoviy ishq.....	15
Adabiyot gulshani.....	16
Kuzginam.....	17
O`ksik ko`ngillar.....	18
Mustaqil vatanim.....	19
Ona.....	20
Seni sevdim.....	21
Namangan nihollari.....	22
Orzular.....	23





O`zbekim.....	24
Umr nima?.....	25
Armon.....	26
Bolalik.....	27
Kech.....	28
Yig`ladim.....	29
Yashagim keldi.....	30
Qalam qudrati.....	31
Vatan.....	32
Afsus.....	33
Tinchlik madhi.....	34
Zulfiyaxonim izdoshi.....	35
Kitoblar.....	36
Kechikkan ishq.....	37
To`rtliklar.....	38
Yuragimda yashaysan.....	39
Qo`rqaman.....	40
Aforizmlar.....	41
Boylikka burkangan baxtsizlik.....	44



2 500 nusxa.

Adabiy-badiiy nashr

ZULXUMOR HAMIDJONOVA

Bahor nafasi

Muharrir: **Saidaxon NASIMXONOVA.**
Tex. muharrir: **Ismoilxon TOSHJOJAYEV.**
Kom. operatori: **Muxriddin MIRFAYOZOY.**
Musahhah: **Kamolxon BOBOXONOV.**

Terishga 13.11.2013 y. berildi. Bosishga 25.12.2013 y. ruxsat etildi. Shrift garniturası PANDA Times UZ Lat.

Oq qogo'zıga ofset usulıda bosıldı.

Bıchımı 60x84. 1/16. Shartlı bosma tabog'i 3,0.

Nashrıyot hisob tabog'i 3,0. Adadı 500 nusxa.

Buyurtma № 69 Bahosi kelıshılğan narxda.

«Namangan» nashrıyoti. Namangan shahrı,
Navoiy ko`chasi, 36. Matbuot uyi. 3-qavat.

Nashrıyot litsenziya raqami AN-156
2009 yil 14 avgustda berılğan

«Chust bosmaxonasi» MCHJ,
Chust shahrı, So`fizoda ko`chasi, 8-uy.